

## ФИЗИОПАРАТЛАР БИЛАН ИШЛАШ ПРИНЦИПЛАРИ

*Abduvorisova Xilola Pulatovna  
Andijon Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

### Ультратовушли терапиya

Davolashning bu usuli mushaklardagi og'riq va sanchiqni qoldiradi, yaralarni tez tuzatadi, terining, to'qimalarning shikastlangan joylarini tez tiklaydi, qon kelishini yaxshilaydi, hujayralardagi metabolizmni oshiradi. Tayanish-harakat a'zolari kasalliklarini, teri kasalliklarini, nevrologiyani davolashga ishlatiladi.



BTL Kompaniyasi innovatsion texnologiya bilan ishlab chiqilgan, xususiyati va ishlashi boshqacha, ko'p ish bajaradigan ultratovush applikatorlarini ishlab chiqaradi. Ularning sirasiga aylanadigan maydon texnologiyasi, akustik signal beradigan va ko'p boshqa texnologiyalar kiradi. Modul tizimli, badan qismlariga o'tish imkonini beradigan va birlashtirilgan terapevtik ensiklopediyali apparat modellari bor.

### Elektroterapiya


Bu usul og'riqni kamaytiradi, mushaklar tizimini harakatchan qiladi. BTL Kompaniyasi ishlab chiqargan fizioterapiya apparati elektroterapiyada ishlatiladi va albatta past va o'rta chastota toklarning keng qamroviga ega bo'ladi.



Ekran— ko'pincha sensorli bo'lganu uchun ishlatishni imkoni boricha soddalashtiradi, to'g'ri tanlangan va dasturlab qo'yilgan davolash tartibi har bitta be'morni davolash ko'rsatgichlarini tez va aniq belgilash imkonini beradi.

### Lazer terapiya

To'qimalar harakatini oshirganda va to'qimadagi yarani bitirganda, yallig'lanish va shishni ketkazganda bunday ta'sir ayniqsa samarali bo'ladi. BTL Kompaniyasining fizioterapiyada ishlatiladigan lazerli apparatlarida nur chiqaradigan applikatorlarni turlicha qibil o'zgartirish mumkin:



- qizil va infraqizil zondlar;

- qizil va infraqizil klasterlar;
- birlashgan klasterlar.

Hamma ko‘rsatgichlarni jihozning sensorli ekranida oson o‘zgartirish mumkin. Ishlaganda albatta ko‘zni berkitadigan ko‘zoynak taqib oling.

### **Magnitoterapiya**

Magnit maydoni ta’siriga asoslangan bu usul og‘riqni ketkazadi va to‘qimalar tuzalishini tezlashtiradi. BTL Kompaniyasining magnitoterapiya vositalari bozordagi shunga o‘xshash jihozlar ichida eng kuchlisi hisoblanadi. Patentlangan fokusli magnit maydoni texnologiyasi ishlatiladigan ko‘pdan-ko‘p applikatorlardan o‘zingizga keragini tanlab olishingiz mumkin — bunday texnologiyali jihozlarni faqat bizning Kompaniyamiz ishlab chiqaradi.

Sezib tushunadigan va sensorli boshqariladigan ekran, birlashtirilgan davolash tartibi — bularning hammasi fizioterapiya jihozlaridan foydalanadigan mutaxassislarning ishini ancha osonlashtiradi.

### **Birlashgan apparatlar**

BTL Kompaniyasi apparatlarining ko‘pi birlashgan, umumiy fizioterapiya apparatlaridigan iborat. Ularda elektr, magnitli, ultratovush va lazerli terapiyaning turli xususiyatlari birlashtirilgan.

### **Ginekologiyadagi fizioterapiya**

BTL Kompaniyasi BTL-4000 Premium G jihozida ginekologiyada qo‘llanadigan o‘xshashi yo‘q usullarni jamlagan.

Uning yordamida ayollar bepushtligi, tos osti mushaklarining zaifligi, surunkali yallig‘lanish, kataral mastit, homilani yo‘qotishga odatlanish sindromi kabi kasalliklarni tuzatish mumkin.

### **Qisqa to‘lqinli diatermiya**

Davolashning bu usuli to‘qima va a‘zolarni chastotali qisqa to‘lqin bilan qizdirishga asoslangan.

BTL-6000 Shortwave 400 jihozida hosil bo‘ladigan to‘lqin to‘qimaga imkoni boricha chuqur — infraqizil nur, issiq vanna yoki kompress bilan qizitgandagidan ko‘ra chuqurroq kiradi.



yuqori

kiradi

### **Микрто‘lqinli diatermiya**

BTL-6000 Microwave – doimiy va impulsli mikroto‘lqin terapiya apparati. Mikroto‘lqin terapiyada ishlatiladigan bir qutbli applikator ishlatilishi oddiy va qulay.



### **Traksion terapiya**

Yelkadagi va bo‘yindagi og‘riqni ketkazadi.

BTL-16 Plus vositasi turli usullarda - doimiy, bel sohasini, uyg'un servikal davolashga mo‘ljallangan.



### **Zarb to‘lqinli terapiya**

Eng ko‘p ishlatiladigan va so‘raladigan usullardan biri. Ortopediya, urologiya, kosmetologiya va sport tibbiyotida ishlatiladi.

Yuqori intensiv lazer bilan qo‘shib ishlatilganda ta'siri ayniqsa ko‘proq bo‘ladi. Zarb to‘lqinli ekstrakorporal terapiya to‘qimalar tiklanishini harakatga keltiradigan biologik ta'sirni ishga tushiradi.

### **Yuqori intensiv lazerli terapiya**

Bu inqilobiy texnologiya yuqorida aytilgan past intensiv lazerli terapiya qonunlariga asoslangan.

To‘qimalar tez tuzaladi, davolash ta'sirida og‘riq ketadi, be'mor o‘rganib qolmaydi.

Yuqori intensiv lazerli terapiya mushaklar shikastlanishi va cho‘zilishidan boshlab degenerativ artrozgacha bo‘lgan keng miqyosli klinik kasalliklarni davolashga qo‘llanadi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гурленя, А. М. Физиотерапия в неврологии / А. М. Гурленя, Г. Е. Багель, В. Б. Смычек. — Медицинская литература, 2008. — 296 с. — ISBN 978-5-89677-123-4. — ISBN 978-985-6333-26-5.
2. Мендельсон, М. Э. Электротерапия // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

3. Улащик, В. С. Общая физиотерапия / В. С. Улащик, И. В. Лукомский. — Мн. : Книжный дом, 2004. — 512 с. — ISBN 985-489-209-3. — ISBN 985-489-019-8.
4. Улащик, В. С. Физиотерапия : Универсальная медицинская энциклопедия. — Мн. : Книжный дом, 2008. — С. 308–315. — 640 с.
5. Пономаренко, Г. Н. Биофизические основы физиотерапии / Г. Н. Пономаренко, И. И. Турковский. — Медицина, 2006. — 176 с. — ISBN 5-225-04055-1.